



MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Yuldasheva Dilafuz Maxamadaliyeva

FarDU dotsenti, f.f.d.

Abdumuminova Gulsanam Inomjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 3-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7765410>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16- mart 2023 yil
Ma'qullandi: 18-mart 2023 yil
Nashr qilindi: 24-mart 2023 yil

KEY WORDS

*eksperimentator-pedagog,
kompetensiya, intellektual,
psixologik va kognitiv
rivojlanish, anketa-
so'rovnomalar*

ABSTRACT

Ushbu maqolada bugungi kunda dunyoda maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq madaniyatini shakllantirishda inovatsion texnologiyalardan amaliyotda foydalanish haqida so'z yuritilgan

Nutq madaniyati notiqlik san'atining g'oyat muhim tarkibiy qismi bo'lib, shaxsning mas'uliyati va mahoratini ifodalaydigan shartlardan biri. Bu san'at nutqdagi har bir masalaning, uning nihoyasida qisqa, lo'nda, aniq xulosalar chiqarish; og'zaki va yozma savollarga qisqa, aniq javob berish; bahslashishga to'g'ri kelib qolsa, o'z mavqei, nuqtai nazarini qattiq ishonch bilan, astoydil himoya qilish ma'suliyatini shakllantiradi. Nutq qudratli kuchdir; chunki u ishontiradi, da'vat qiladi, hatto majbur etadi. Nutq so'zlashdan maqsad kishini ishontirishdir. Tarbiyachi jummalarni qisqa-qisqa tuzib so'zlashi, uzundan-uzoq gaplarni bayon etishdan tiyilishi; so'zlayotganda ovoznining goh baland, goh past bo'lib tovlanishiga alohida e'tibor berishi kerak. Busiz jumla qanday ohangda, urg'u, talaffuzda aytilishiga qarab turlicha ma'noni anglatishi mumkin. Kishi o'z nutqining talaffuziga, nutq, so'zlash ohangiga muttasil va qat'iy talabchan bo'lmog'i lozim. Birinchidan, uning ovozi jarangdor, baland, toza, tiniq, yoqimli, yumshoq bo'lishi zarur; ikkinchidan, tomoqni asrash; xastalikning, jumladan, shamollashning oldini olish lozim. Albatta, bularni maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlash muhim ahamiyatga ega. Demak, odamlar o'zining turli-tuman faoliyatlarida – fikr almashish, bir-biriga ta'sir ko'rsatishda nutq orqali aloqada bo'ladilar. Bundan tashqari, nutq orqali aloqaga kirishish jarayonida har bir kishi o'z bilimlarining ko'p qismini boshqa kishilardan til vositasi yordamida oladi. Ta'lim jarayonida to'plangan tajriba va bilimlar til vositasi asosida amalga oshiriladi. Til yordami bilan fikr almashadilar, odamlar mehnat faoliyatlarini tashkil etadilar.

Ma'lumki, kichik maktabgacha yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirish uchun tabiat ob'ektlari, badiiy asarlar bilan tanishtirish; savodga o'rgatish va bu o'rinda ijtimoiy foydali mehnat kabilardan foydalaniladi. Ushbu vositalar asosida nutq madaniyatini shakllantirish maxsus

rejalashtirilgan va tashkil etilgan mashg'ulotlarda amalga oshirilishi samarali natijalarga olib keladi. Bunda quyidagi talablarga rioya qilish zarur: mashg'ulotlarning maqsadi, mazmuni va o'tkazilish muddatini hisobga olgan holda rejalashtirish; bolalarning nutq madaniyatini shakllantirish mashg'ulotlarida mustaqil faoliyatlarini aniq belgilash;; nutq tarbiyasiga oid aniq masalalarni hal etish (mashg'ulot mazmuni, vaqti va o'tkazish metodini aniq belgilash); bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishga oid mashg'ulotlarga qiziqish uyg'otish; rejalashtirilayotgan mashg'ulotlar o'rtasida izchillikka rioya qilish; mashg'ulotning barcha bosqichlarida aniq maqsadga qaratilgan so'zlarni o'rganish.

Nutq madaniyati bolaning o'qishga nisbatan bo'lgan munosabatida aks etadi. Nutq madaniyati tarbiyalanuvchining bilimga bo'lgan javobgarlikni his qilish, o'ziga nisbatan talabchanlik va o'z-o'zini tanqid qila bilish kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Haqiqatan ham, bu xususiyatlar bolada mavjud bo'lmasa, unda nutq madaniyati to'liq rivojlanmaydi. Bular bolada nutq madaniyatini shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Demak, bolaning nutq madaniyati tarbiya jarayonida va uning butun hayoti davomida rivojlanadi. Umuman, maktabgacha yosh davrida bolalarda nutq madaniyatiga poydevor qo'yiladi. Bu yoshning oxirgi davrlariga kelib nutq madaniyati haqidagi bilimlar, tasavvurlar va mulohazalar sezilarli darajada boyiydi, ongliroq tus oladi, umumiy lashadi. Bu yoshdagi bolalarda nutq madaniyati haqidagi bilimlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuni aytish kerakki, maktabgacha yoshidagi bolalar xarakter jihatdan o'zaro farqlanib turadilar. Ularning ba'zilarida o'ylamasdan so'zlash, o'z so'zini ifoda eta olmaslik kabilar uchrab turadi. Buning asosiy sababi, mazkur yoshdagi bolalar hali yosh bo'lgani tufayli o'z so'zlarini idora qila bilmasliklari mumkin. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirish mushkul, deb qarash to'g'ri emas. Tarbiya zaminida shaxs hissiyoti yotadi. Shuning uchun har qanday nutq madaniyatini shakllantirish shaxs hissiyoti bilan bog'liq hodisadir. Shaxsda nutq madaniyatini shakllantirish va uning til xususiyatlarini o'stirish so'z, gap, fikr, nutq, muomala kabi xislatlarni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra, maktabgacha yoshidagi bolalar nutq madaniyati tushunchasini bir butun holda o'zlashtirishlari uchun tarbiyachi har bir mashg'ulotni ularning yosh xususiyatlariga mos tarzda o'tkazishi maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha yoshidagi bolalar ongida nutq madaniyatini shakllantirishda tarbiyachining roli beqiyos. Agar tarbiyachi shaxsiy ibrat ko'rsatsagina tarbiyada yaxshi natijaga erishish mumkin bo'ladi. Maktabgacha yoshidagi bolalar nutq madaniyatini shakllantirish jamiyatning asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Hur fikrli, chuqur va teran ongli bolalarni tarbiyalash, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning bosh muammosi bo'lmish komil insonni tarbiyalash zaminidir. Bolalar tafakkurining o'sib borishi faqat bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanishiga emas, uning jamoada o'zini erkin tutishidan tortib, ma'naviy yetuk, yuqori saviyali mutaxassis bo'lib yetishishigacha o'z ta'sirini ko'rsatadi. Jamiyatimiz yoshlarni aqlli, teran tafakkurli, mehnatsevar, erkin fikrli qilib tarbiyalashni ustivor vazifa qilib belgilagan ekan, bu vazifani amalga oshirish birinchi navbatda bog'chadagi ta'lim-tarbiya zimmasiga tushishini unutmaslik lozim. Shunday ekan, nutq madaniyatini shakllantirishga oid olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy mazmuni va mohiyatini joriy qilish yo'llari va vositalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ana shunday yangicha yondashuvlardan biri talim tizimi jaroyonida "Kompetensiya" "kompetentlik" atamalarining qo'llanayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompetensiya so'zi aslida lotincha competere so'zidan olingan bo'lib, mos kelish degan ma'noni anglatadi. Ya'ni, lug'aviy ma'nosidan kelib chiqsak, kompetensiya – ko'zlangan

natijalarga erishish uchun bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llay olish qobiliyatini namoyish eta olishni bildiradi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi

3. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon

Mazkur yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish maktab ta'limiga tez va samarali ijtimoiylashish omili hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya ijtimoiy tavsifga ega bo'lib, uni bolalarda shakllantirish uchun umumdidaktik, xususiy tamoyillarga va innovatsion yondashuvlarga asoslangan jarayonni tashkil etish taqozo etiladi. Ushbu jarayonning texnologik tuzilmasi va didaktik ta'minoti tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyalar va nutqiy madaniyatning shakllanganligiga ham bevosita bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim jarayonidagi yangicha yondashuvning bosh maqsadi bola shaxsining har tomonlama rivojini ta'minlashdan, nazariy tafakkurini, lisoniy layoqat va iste'dodini rivojlantirishdan, nutqiy muloqot madaniyatini egallashi va ma'naviyatini shakllantirishdan iborat.

Demak, ta'lim-bu murakkab va mas'uliyatli jarayon. Bu jarayonda tarbiyalanuvchining savodxonligi, mashgulotlar davomida innovatsion texnologiyalardan to'g'ri va oqilona foydalanish bolaning keyingi ta'limga sifatli tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sobirjonovich S. I. et al. EASTERN THINKERS'VIEWS ON EVERYWHERE EDUCATION OF CHILDREN //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 309-314.

2. Soliyev I. S., qizi Ergasheva D. S. BOSHLANG 'ICH TA'LIM FANLARINI O 'QITILISH JARAYONIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ME'ROSIDAN UNUMLI FOYDALANISH //RESEARCH

AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 16-20.

3. Ergasheva D. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA TO 'G 'RI O 'QISH KO 'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B8. – C. 1675-1678.

4. Turg'unboyev B., Ergasheva D. MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH-BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARI O 'QUV-BILUV FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH VOSITASI SIFATIDA //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2023. – T. 3. – №. 1 Part 1. – C. 162-164.

5. Солиев, И. С., and Қ. Н. Муродиллаевич. "Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг ахборот компетентлигини ривожлантириш." Образование 9 (2020): 10-11.

6. Sobirjonovich, Soliyev Ilhomjon. "The Concept of Connected Speech and its Significance for the Development of Preschool Children." Spanish Journal of Innovation and Integrity 5 (2022): 518-523.

7. Ergasheva D. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA TO 'G 'RI O 'QISH KO 'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B8. – C. 1675-1678.

